



## YOZUVCHI ERKIN A`ZAMNING OG`ZAKI NUTQQA XOS LEKSIK VA GRAMMATIK VOSITALARDAN USLUBIY FOYDALANISH MAHORATI

Bo'riyev Jamshid<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti, o'zbek tili va  
adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5884887>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-Yanvar 2022

Ma'qullandi: 15- Yanvar 2022

Chop etildi: 20- Yanvar 2022

### KALIT SO'ZLAR

Uslubiyat, leksika,  
E.A`zam  
asarlari, grammatik  
vositalar

### ANNOTATSIYA

*Bu maqolada Erkin A`zamning asarlarida uchrovchi og`zaki nutqqa xos leksik va grammatik vositalardan uslubiy foydalanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Uslubda ishlatiladigan faol so'zlar lug'at tarkibining asosiy qismini tashkil etadi. Bunday so'zlar uyda, ko'chada, ishxonada, bozorda, to'y-tomoshada ishlilatiladi. So'zlashuv uslubda qo'llanadigan asosiy so'zlar; osh, non, suv, don, ovqat, tuz, shakar, go'sht, yer, osmon, quyosh, ona, bola, ota kabilar uslubiy bo'yoqsiz bo'lgani uchun neytral so'z hisoblanadi. Lekin bu stilda yana shunday so'zlar ishlatiladiki, ular yo ijobiy yoki salbiy bo'yoqqa ega bo'ladi. Tilning leksikasi eng nozik ma'no va stilistik ottenka (tur)lar bilan informatsiya berishda juda katta imkoniyatlarga ega.*

Hozirgi o'zbek tilida yoki rus tilida necha so'z bor? Bunga javob berish juda qiyin. Ayniqsa, neytral va stilistik bo'yoqli so'zlarni aniqlash undan ham qiyin. Bu vnzifani amalga oshirish uchun lingvistlar lug'atlar ustida stilistik tadqiqot olib boradilar. Rus ohmi F.P. Filin «Rus adabiy tilining lug'ati» 7-jildini tahlil qilib, undagi 15530 so'zdan 3925 so'z stilistik pozitsiyada ekanligini aniqladi.

Demak, 75 % so'z neytral bo'lib, 25 % stilistik bo'yoqli ekan. Bunday ish o'zbek tilshunosligida hali amalga oshirilmagan. Leksik stilistikada tilimizning lug'at boyligidagi birliklarning stilistik

xususiyatlari o'rganiladi. U lar ichida, ayniqsa, sinonim lar, antonimlar, omonimlar stilistik imkoniyatga boy vositalar hisoblanadi.

Sinonimlarning so'zlashuv uslubida leksik xususiyatlari

So'zlashuv uslubida sinonimiya hodisasi muhim o'rin tutadi. Uslubiy bo'yoqli so'zlar, ayniqsa, sinonimik qator o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, sinonimik qatorining uzunligi turlichadir: bir tomondan, sinonimik qator faqat ikkita so'zdan tuzilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bir necha so'zdan tuzilishli mumkin, masalan: ikki qismli sinonimik qator:



*chopmoq-yugurmoq, sevinmoq-xursund bo'lmoq,*

*uysiz-joysiz, dum-quyruq.*

Ko'p qismli sinonimik qator:

*yuz, aft, bashara, turq, bet, chehra, siymo.*

*kulmoq, jilmaymoq, tabassum qilmoq,*

*tirjaymoq, irshaymoq, iljaymoq, ishshaymoq.*

Yuqoridagi leksik holatlarni Erkin A'zam ijodi misolida ko'rib o'tamiz:

***"Ilk qor tushgan kezlar edi. Bir kuni mestkom raisi uni chaqirib qoldi. - Suyunchini cho'zing! - dedi iljayib. - Uy ajratildi bizga. Navbat sizniki ekan. Xo'jayinlar bilan kelishdik, ancha yildan beri ishlayotganingiz, peshqadam injenerlarimizdan ekaningizni nazarda tutib, sizga beradigan bo'ldik. Hujjatlarni tayyorlayvering. Bizning davrimizda yashab qolsin, dedik-da. Keling endi, o'tgan ishga salavot, shuncha vaqt - anov gapga uch yil bo'ldimi, to'rt yil? - qiynaladingiz, yetar..." ("Sovuq" hikoyasi)***

***Xo'jayinlar*** - boshliq, xo'jayin, yetakchi kabi sinonimlar qatoridan so'zlashuv uslubiga xos birlik sifatida ijodkor tomonidan qo'llanilgan ushbu birlik matnda qahramon tilidan aytilgan va sinonimlar qatoridan broz salbiy ma'no kasb etgan.

***Peshqadam*** - Yetkachi, faol, jonboz, harakatchan kabi sinonimlar qaroridan o'rin oluvchi "peshqadam" so'zi leksik va tasviy ifoda jihatdan ijobiy ma'noda qo'llanilgan.

***Injenerlarimizdan*** - Muhandis, injener so'zlari sinonim birliklar hisoblanib, muhandis so'zi injener so'ziga nisbatan adabiy, injener so'zi so'zlashuv uslubida keng qo'llanilib qahramon tilidan ijobiy bo'yoqdorlikka ega.

***Anov*** - ana shu, mana shu, u, bu, manov, anov sinonim qatoridan o'in olgan anov so'zi so'zlashuv uslubiga xos birlik hamda adib tomonidan maqbul variant sifatida ishlatilgan. Jumladan ushbu so'z dialektik birlik

***Qiynaladingiz*** - qiynalmoq, charchamoq, horimoq kkabi tushunchalar tarkidan o'rin olgan sinonim so'z ushbu so'zlarga nisbatan bosh so'z hisoblanadi.

***"Rixsiyevning stoli yonidan o'tarkan, u:***

***- Mag'izdan oling, Turobjon, - deb mulozamat qildi. - Kishmishni qarang, marjondek-a!***

***- O'rmonov mag'izga ham, marjondek kishmishga ham qaramadi, stolda turgan bankani aylantirib ko'rarkan" ("Sovuq" hikoya)***

*Kishmish* - mayiz so'zi bilan sinonim bo'la oluvchi kishmish so'zi ushbu dialogik komponent tarkibida ijobiy bo'yoqdorlikka ega.

*Marjon* - gur, gavhar, marvarid, marjon so'zlari o'zaro sinonim bo'lib, marjon so'zi ijobiy ma'noda qo'llanilgan.

***- Ie, iye, chatoq-ku, oldini olish kerak. - Rixsiyev yayrab maslahat berishga tushdi: - Kechasi qo'y yog'idan surtib yoting. Silatsangiz ham tuzuk. - Bu gapni aytdi-yu, labini tishladi.***

***- Hech isimaydi, - dedi O'rmonov eshitmagandek. - Asabdan, deyishyapti. - Siz spako'yniysiz-ku, Turobjon? Yo sovuq ustixoningizga o'tib ketganmikan? Tuzukroq poyabzal kiysangiz bo'lmaydimi? ("Sovuq" hikoya)***

***Chatoq*** - yomon, og'ir, rasvo kabi so'zlar qatorida turuvchi ushbu sinonim so'z yozuvchi tomonidan dialogik birlik tarkibida tasirchanlikni oshirish maqsadida



unumli qo'lanilgan va uslubiy ma'no kasb eta olgan.

Tuzuk-tuzuk, yaxshi, yomon emas kabi sinonim birliklar bilan ma'nodoshlik hosil qiluvchi yuqoridagi so'z yaxshi so'ziga nisbatan ijobiy va uslubiy bo'yoqdor so'z. So'zlashuv uslubida nisbatan kam qo'llaniladi.

**Ustixon** – suyak so'zi bilan sinonimlik hosil qiluvchi so'z bo'lib, matnda ijobiy va uslubiy bo'yoqdorlik hosil qilgan.

**Shu uyni kuzdayoq isitish chorasini ko'rsa bo'lardi: pechka-mechka qo'yib, teshik-tuynugini berkitib.** «O'zim lapashangman-da», deb o'yladi O'rmonov.

«Lapashang!» Bu so'z unga juda tanish edi. Bu so'zni u juda ko'p eshitgan. Har kuni! Hozir birov O'rmonovga «Uch yil burun sening issiqqina uying, xotining, qizchang bor edi», desa, sira-sira ishonmas, bu gapni xuddi tushida eshitayotgandek bo'lar edi. (**“Sovuq hikoya”**)

Pechka-mechka, teshuk-tuynuk- ushbu birliklar ikki qismli sinonim so'zlar bo'lib umumiylik, birlik ma'nolarini ifodalsh maqsadida qo'llanilgan.

Lapashang- lallaygan so'zi bilan sinonimlik hozil qiluvchi ushbu so'z og'zaki nuqtda salbiy ma'noda keng qo'llaniladi

**Barcha shuning og'zini poylaydi.**

**- Kechirasiz, do'xtir ukam, - dedi bir mahal do'ppi kiyganlarning keksarog'i istihola bilan, - anovi barmog'ingizni nima qilgan, bilsak bo'ladimi?**

**Abusharof akaning chap qo'lidagi jimjilog'i negadir yo'q, men ham shunga ahamiyat bergan, ammo sababini so'ramoq es-xayolimga kelmagan edi: yo'q bo'lsa -yo'q-da.**

**- Urushda bo'lgan, - deb qo'ydi ekstrasens mutlaqo pinak buzmay.**

**- Urushda?! Urushda qatnashganmisiz? - dedi haligi kishi taajjub bilan. - Yoshroqsiz chog'i, taqsir?**

**- Amerikadagi urushda, - dedi tabib “gap tamom” degandek qilib**

**Do'xtir** – shifokor so'zi bilan sinonimlik hozil qiluvchi doktor so'zining so'zlashuv uslubidagi varianti bo'lib. Ushbu o'rinda ijodkor qahramon tilidan aytillayotgan ushbu so'z orqali qahramon xarakterini ochib berishga erishgan.

**— Tavba qildim, tavba qildim! — deya yana o'zbekchasiga oladi Lena modachi kaftini ko'kragiga bosib. — To'g'ri aytasiz, dugonajon, to'g'ri. Xudoga shukr, hazoron shukr!**

Hazonon shukr- ushbu so'z ming shukr so'zi bilan sinonim bo'lgan fosrcha so'z bo'lib, so'zlashuv uslubida qahramonning Buxoro, Samarqand hududidan ekanliga ishora qilingan.

Gramatikk uslubiyat u yoki bu grammatik vositalarning imkoniyatlarini, uning ma'lum bir nutq uslubi bilan uyg'unlashib qolishini, qo'shimcha ma'no qirralarini, shuningdek, shu grammatik <sup>1</sup>elementlarning qo'llanishidagi tasvirlyay olish (ifodal olish) imkoniyatlarini, xuddi shunday ma'noni ifodalovchi boshqa, ularga parallel bo'lgan grammatik vositalr bilan munosabatini ( farq qiluvchi va umumiy tomonlarini o'rganadi) gap, masalan ma'lum bir grannatik shaklni ko'p yoki oz ishlatilganida emas, balki uning ana shu shakl qanday ulubiy vazifa yuklaganida , matnda undan nima maqsadda va qanday

<sup>1</sup> 8. O'rinboyev B.U. O'zbek tili so'zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. Toshkent. 1974, 170-bet.



foydalanganidadir. Grammatik so'zning shakl yoki sintaktik qurilmaning grammatik va lug'aviy ma'nolarini o'rgansa, grammatik stilistika ularning qo'shimcha ekspressiv ma'nolarini, vazifaviy xususiyatlarini ochib beradi.

Ushbu jihatlarni yozuvchi Erkin A'zam ijodi miolida ko'rib o'tamiz.

**“- Keling, keling, Marinaoy!**

**- Bormisiz, Lenaxon, bormisiz?**

**Ikki dugona achom-achom qiladi, hol-ahvol so'rashadi**

**- U obod-orasta hovliga, pastak-pastak ishkomlari yashnab turgan bog' tarafga bir nazar tashlaydi:**

**- Mana, hamma narsang bor! Boshingda ering, bola-chaqang yoningda!**

**- Tavba qildim, tavba qildim!**

**- deya yana o'zbekchasiga oladi Lena modachi kaftini ko'kragiga bosib. - To'g'ri aytasiz, dugonajon, to'g'ri. Xudoga shukr, hazoron shukr! - Demak, sen uchun, sening ering va bolalaring uchun olamiz!”**

Jumladan yuqoridagi Erkin A'zam hikoyalaridan keltirilgan parcha matnida ishtirok etgan so'zlar asosida yuqordagilarni ko'rib o'tamiz:

**“Boshingda ering, bola-chaqang yoningda!”**- ushbu qapda kesim gap bo'lagiga xos bo'lgan grammatik ko'rsatkichlar ya'ni ismlarning bo'lama shakllari tushib qolgan bu holatni quyidagicha izohlashimiz mumkin, xususan dastlab bu holatni so'zlashub uslubiga xosligi, grammatik ko'rsatkichlarning gap tarkibida talaffuz jarayonida tushib qolishi hamda [-dir] bog'lama shakli uslub jihatdan talaffuz jihatdan qo'llanmasligi so'zlovchi uchun so'zlashuv qullayligini taminlab bergan. Aslida ushbu gap adabiy til me'yorlari jihatdan quyidagicha :

*“Boshingda ering, bola-chaqang yoningdadir” yoki “Boshingda ering, bola-chaqang yoningda bordir” tarzida kuzatilishi mumkin. Ayni damda kesimning o'zini to'la namoyon etmaganni gap qurulishiga nisbatan unchalik ta'sir ko'rsatmaga*

**— Dadajon, esingizdami, huv yoshligimda qishloqqa borganimizda anuv gavnali amakingiznikida mehmon bo'luvdik. Uylaridagi devorda bir rasm ko'ruvdim. G'alati rasm edi. Eslamay nima! Chamasi, ming-minglab nusxada tarqalgan plakatsimon bir tasvir-da. Bir yoni pushtinamo allaqanday yirik shaftoli, ko'kmak butog'i tikkayib turibdi. Shuni uchtami-to'rtta qipyalang'och, qiyiqko'z mitti bolakay xuddi koptok misol qayoqqadir dumalatib ketayotir. Yonboshida xitoychami, tikka tushgan bir yozuv, xolos.**

Yuqoridagi matn tarkibida qatnashgan so'zlar tarkibida lug'aviy va sintak shakl yasovchi qo'shimchalar asosida so'zlashuv uslubiga xos diologik birliklarni grammatik jihatdan ko'rib o'tamiz:

Bo'uvdik, ko'ruvdim- ushbu so'zlar tarkibida aslida ( Ko'rgan edim , borgan edim) [-gan] sifatdosh elementining ishtirok etishi lozim bo'lgan, ammo ushbu o'rinda [-gan] emas , balki [-uv] harakat nomi lug'aviy shakli kuztilgan bo'lib bu holat matdagi dialok egalarining ayni damda so'zlashuv uslubida gaplashgani hamda [-uv] ning qo'langanligi diologik matnda ijobiy ma'no bo'yoqdorligi, bolaga

**Pushtinamo** - ushbu o'rinda pushti rang so'zini yozuvchi matnda qo'llash o'rnida, pushti so'zga [-namo] yasovchisi asosida yasalgan “pushtinamo” so'zidan unumli foydalangan. Ijobiy xarakrer va bo'yoqdorlikka ega bo'lgan ushbu so'z matn tarkibida tasirchanlikni yanada oshirgan.



Ijodkor ushbu o'rinda pushti rang deya cheklanib qolishi mumkin edi, ammo aynan pushtinamo so'zining qo'llanishi matnning badiiyatiga o'z hissasini qo'shgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

**Tikka tushmoq** - aslida to'g'ri so'zi bilan sinonimlik hosil qiladigan tikka so'zining bu o'rinda qo'llanishi so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan holatni va sinonimlik qatorining kengligiga va tasirchanligiga zamin yaratgan. Tikka tushmoq yani "To'g'ri tushmoq", yoki matndan kelib chiqsak biron bir buyum yoki daftarga eniga emas balki bo'yiga yozilgan yozuv ma'nosini ochib berish uchun ayni damda tikka (to'g'ri) so'zi qo'llanilib yuqoridagi ma'noni so'zlashuv uslubida ochib bergan. Bundan tashqari tik so'ziga qo'llanilgan [-ga] sintaktik kelishik shakli o'rnida boshqa holatlarda qo'llaniladigan 'uchun', "Tomon", "sari" kabi ko'makchi birliklari bilan ushbu o'rinda sinonimlik hozil qilishning qilishning iloji yo'q. Chunki matnda "Tik tomon", "tik sari", "tik uchun" tarzida qo'llanish uslubiy va ma'noviy xatolik hisoblanadi.

- **Yur, jo'rajon, ikkovimiz bir portretga tushaylik!**

- **Shu aft, shu angor bilanmi? - dedim kulib.**

- **Boshqa payt, boshqa payt. Ramazon o'sha kuni menikida tunab, ertasi ishiga ketdi. Ishi og'ir - tandirdan cho'g'dek qizib chiqqan g'ishtlarni olib taxlar ekan: horib-chuykab, kaftlari qavarib, oyda bir marta, shunda ham yo'lkira so'rab kelardi. Hordiq kuni shaharga tushib, eski odati - bor-budini allakimlarga ulashib, ketishda mendan pul so'rab kelardi.**

**Horib-chuykab** - aslida ushbu o'rinda horib-charchab so'zi adabiy jihatdan qo'llanishi kerak, ammo yozuvchi Erkin A'zam ushbu o'rinda so'zlashuv

uslubiga xos bo'lgan horib-chuykab birligini olishni lozim topgan. Ayni shu orqali adib sheva elementining horib-charchab so'ziga sinonim bo'la olishi mumkinligini isbotlagan va sinonimlardan foydalanish badiiy matnning ekprensivligini oshirishga zamin yarata olgan.

**Bor** - budini- bor narsa, ega yoki ayni paytda o'zida mavju bo'lgan narsaga nisbatan bor-bud leksik sinonim qatlami birligiqo'llanganligi baddiylikni yanada oshira olgan

**Portretga** - yoxud rasm, surat sinonim birliklari uning o'rinida qo'llanishi umumkin edi, ammo ijodkor ushbu o'rinda vaqt va zamon hamda uslub jihatdan portret so'zini ishlatgan. Bundan tashqari[-ga] o'rnida bu boshqa ko'makchi birliklarini qo'llab bo'lmaydi, bu uslubiy g'alizlikka olib kelishi mumkin.

**Aft,angor** - bir o'rinda ikki xil sinonim birlikning bir oaytda qo'llanishi, salbylik va kitobxonga nisbatan ta'sirchanlikni, nutqning ravon bo'lishini taminlay olgan. Hamda yuz so'ziga nisbattan salbiy bo'yoqdorlik xususiyatiga ega bo'lgan bu birliklar bilan qahramon holati hamda ko'rinishining yomonligiga ishora qilgan.<sup>2</sup>

<sup>2</sup> 8. O'rinboyev B.U. O'zbek tili so'zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. Toshkent. 1974, 170-bet.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O`rinboyev B.U. O`zbek tili so`zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. Toshkent. 1974, 170-bet
2. Muhamyedov S. O`zbek tili funksional stillarini belgilash to`g`risida // O`zbek tili va adabiyoti, 2003.
3. B.Umurqulov "Poetik nutq leksiyasi"